

2019 yilning yanvar oyida Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

RAQAMLAR:


- Sanoat ishlab chiqarish hajmi - **1000,7** mlrd.so'mni tashkil etdi
- Sanoat ishlab chiqarish indeksi- **94,0%**
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi – **126,0** mlrd.so'mnini tashkil etdi
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi -**13,8 %** ni tashkil etdi
- Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini soni - **1857** birlikni tashkil etadi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar oyida respublika korxonalaridan 1000,7 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 94,0% ni tashkil etdi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 86,2 % tashkil etadi.

Sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini ham munosib hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 9,4% tashkil etti.

2019 yilning yanvar oyida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 35,4 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,5 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'ycha ohoktosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 55,4 % ga, tabiiy gaz 2,7 % ga oshganligini kuzatish mumkun va gaz kondensati 8,4 % ga pa'sayishi kuzatildi.



Yanvar oyida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018 yilda ishlab chiqarilgan	Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2019 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
16422,0	Ohoktosh, t 	10565,0	155,4 ↑
14,65	Gaz kondensati, ming t. 	15,98	91,6 ↓
563,45	Tabiiy gaz, mln.kub.m 	548,72	102,7 ↑


Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).



2019 yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 862,5 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 86,2 % ni tashkil etdi.









Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni o'rta- yuqori texnologiyali 71,8%, o'rta-quyi texnologiyali 3,3 va quyi texnologiyali 24,8 tashkil etdi.




2019 yilning yanvar oyida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi b'oyicha Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan , yumshoq bug'doy uni 8,7% ga, bug'doy noni 16,2% ga, yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa 43,4 % ga va aroq 10,6 % ga oshganligini va paxta tolasi, tozalangan guruch, makaron mahsuloti o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada pasayganligini kuzatish mumkin.

**Yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik
sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
	Paxta tolasi, t		
7209,0		8569,1	84,1 ↓
	O'simlik yog'i (tozalangan), t		
1328,6		1425,7	93,2 ↓
	Tozalangan guruch, t		
452,4		1105,6	40,9 ↓
	Yumshoq bug'doy uni, t		
6652,0		6119,2	108,7 ↑
	Bug'doy noni, t		
213,9		184,0	116,2 ↑
	Makaron mahsuloti, t		
196,1		259,3	75,6 ↓
	Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, t		
5330,4		3718,1	143,4 ↑
	Aroq, ming.l. 100% spirt		
388,9		351,6	110,6 ↑

16,2	Karbonat dinatriya, ming.t. 	17,8	90,7	↓
30730,7	Polietilen, t. 	35997,4	85,4	↓
8361,0	Polipropilen, t. 	8687,3	99,6	↓

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 94,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 9,4 % ni) tashkil etdi.

2019 yilning yanvar oyida sanoatning mazkur tarmog'ida issiqlik energiyasini ishlab chiqarish o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,7 % ga, elektr energiyani ishlab chiqarish 10,3 % ga kamayishi kuzatildi.



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni utilizatsiya qilish.**




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni 79,8 %, ga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning 24,2% ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning 9,5 % ga oshganligi kuzatildi.


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 126,0 mlrd.so'mni tashkil etdi .

2019 yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



Yirik va kichik biznes sub'ektlari tomonidan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi, %




Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Nukus shahri (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 68,5 % dan ulushini), Taxiatoş (7,2 %), Xo'jayli (3,5 %), Mo'ynoq (3,1 %), Beruniy (2,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shuningdek, iste'mol tovarlari hajminig eng katta qismi Nukus shahar (jami iste'mol tovarlari hajmining 33,8 %), Xo'jayli (12,1%), Beruniy (7,7%), To'rtko'l (7,6 %), Ellikqal'a (6,4 %), Taxiatoş va Qo'ng'iro't (6,3 %) tumanlarida ishlab chiqarildi.


**2019 yilning yanvar oyida hududlar bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish (mlrd.so'mda)**



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshishini ta'minladi, va kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 13,8 % tashkil etmoqda.

2019 yilning yanvar oyida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Shumanay (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Nukus va Ellikqal'a (99,9 %), Textako'pir va Qarao'zak (99,98 %) va Chimboy (94,5 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Taxiato'sh (4,8 %), Nukus shahrida (5,9 %), Mo'ynoq (6,0 %) va Qonliko'l (13,5 %) tumanlarida kuzatildi.

Foaliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar.

Bugungi kunda respublikada 1857 sanoat korxonalari foaliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularning 72 tasin yangi sanoat korxonalari tashkil etadi. Yangi tashkil etilgan korxonalarining qariyb 57 % Nukus shahri, Qo'ng'iro't, Qarao'zak, To'rtko'l va Beruniy tumanlariga to'g'ri keladi.

2019 yil 1 fevral holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar soni, birlik



Q.R Statistika boshqarmasi
sanoat statistikasi bo'limi
Aloqa telefoni: (0371) 230-82-09